



## PSIXOLINGVISTIK QARASHLARNING SHAKLLANISHI

*Oybek Odilovich Bazarov*

*Qo'qon davlat universiteti professori v.b,  
filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Mazkur ishda psixolingvistikaning shakllanish tarixi va uning XIX asr tilshunosligidagi psixologik yo'nalish bilan aloqadorligi yoritilgan. Tadqiqotda V. fon Humboldt, G. Shteyntal va A.A. Potebnya kabi olimlarning til va ruhiyat munosabatiga doir qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tilning "ichki shakli", xalq ruhi va nutqiy jarayonni o'rganishda psixologik metodlarning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixolingvistika, psixologik yo'nalish, xalq ruhi, tilning ichki shakli, nutqiy jarayon, assotsiatsiya, appersepsiya, obraz markazi, etnolingvistika, universal grammatika.

**Аннотация:** В данной работе рассматривается история формирования психолингвистики и ее связь с психологическим направлением в лингвистике XIX века. В исследовании анализируются взгляды таких ученых, как В. фон Гумбольдт, Г. Штейнталь и А.А. Потенья, на взаимоотношение языка и психики. Также обосновывается значение психологических методов в изучении «внутренней формы языка», духа народа и речевого процесса.

**Ключевые слова:** Психолингвистика, психологическое направление, дух народа, внутренняя форма языка, речевой процесс, ассоциация, апперцепция, образный центр, этнолингвистика, универсальная грамматика.

**Abstract:** This paper examines the history of the formation of psycholinguistics and its connection with the psychological school of linguistics in the 19th century. The study analyzes the views of scholars such as W. von Humboldt, H. Steinthal, and A.A. Potebnya on the relationship between language and the human



psyche. Furthermore, the significance of psychological methods in studying the "inner form of language," the spirit of the people, and the speech process is substantiated.

**Keywords:** Psycholinguistics, psychological school, folk spirit, inner form of language, speech process, association, apperception, image center, ethnolinguistics, universal grammar.

Psixolingvistika fan sifatida o'tgan asrning 50-yillarida rasman shakllangan bo'lsa-da, uning nazariy ildizlari tilshunoslikdagi uzoq tarixga ega psixologik yo'nalishga borib taqaladi va mohiyatan XIX asr tilshunosligidagi psixologik oqimning mantiqiy davomi hisoblanadi. Shu sababli, psixolingvistika tabiatini tushunish uchun avvalo uning asosi bo'lgan psixologik yo'nalishning shakllanishiga e'tibor qaratish lozim. Mazkur yo'nalish XIX asrning o'rtalarida, tilni qat'iy mantiqiy qoliplar asosida tushuntirish an'anasiga qarshi o'laroq, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi. Uning paydo bo'lishida **V. fon Humboldtning** til falsafasi poydevor vazifasini o'tagan bo'lsa, bevosita asoschisi sifatida uning shogirdi, buyuk nemis olimi **G. Shteyntal** e'tirof etiladi. Psixologik yo'nalish o'zining ilk davridayoq mantiqiy va grammatik kategoriyalar o'rtasidagi bog'liqlik juda zaif ekanligini, mantiq umuminsoniy mohiyatga ega bo'lsa-da, muayyan xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bera olmasligini ta'kidlab, an'anaviy mantiqiy yondashuvdan uzoqlashdi. Ularning fikricha, mantiq nazariy gipotezalarga tayansa, tilshunoslik genetik xarakterga ega bo'lib, bevosita "*nutqiy jarayon*"ni tadqiq etadi.

Ushbu yo'nalish vakillari tilshunoslikning metodologik asosi sifatida mantiqni emas, balki psixologiyani tan oldilar va **G. Shteyntal Humboldt** g'oyalariidan kelib chiqib, tilda "*xalq ruhi*" hamda milliy psixologiyaning ifodalanishini ko'rdi. O'sha davrda psixologiya faqat individual xususiyatga ega bo'lgani sababli, **Shteyntal M. Lotsarus** bilan birgalikda sotsial psixologiyani



(etnopsixologiyani) targ'ib qiluvchi maxsus jurnal nashr ettirdi. Garchi XX asr boshida **V. Vundt** tomonidan ilgari surilgan xalq psixologiyasi alohida fan sifatida to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bu harakat tilshunoslikda xalq ruhini aks ettiruvchi folklor, mifologiya va maqol-matallarni chuqur o'rganishga turtki berdi. Psixologik yo'nalish tarafdorlari tilni doimo rivojlanib boruvchi dinamik hodisa deb hisoblab, "*assimilyatsiya*", "*assotsiatsiya*" va "*appersepsiya*" kabi psixologik tushunchalarni tilshunoslikka olib kirdilar va asosiy e'tiborni jonli nutqqa, so'zlarning ma'no tomoniga qaratdilar. Bu borada **Humboldtning** "*har bir individ o'z tiliga ega*" degan g'oyasiga tayanib, nutqni lingvistik tekshirish obyektiga aylantirdilar.



**1.1-rasm. Buyuk nemis olimi, psixolingvistika fanining asoschilaridan biri A.V.Humboldt**

Yo'nalishning markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan "*tilning ichki shakli*" **Shteyntal** talqinida til tarixiga tatbiq etilgan bo'lsa, rus tilshunosi **A.A. Potebnya** asarlarida u so'zning paydo bo'lishiga asos bo'lgan "*obraz markazi*" sifatida talqin qilindi. Masalan, "*medved*" (ayiq) so'zining ichki shakli sifatida hayvonning "*asal yeyish*" belgisi olingan. Til birliklarining yaratilishini tushuntirishda ular psixologiyaning yuqoridagi atamalaridan unumli foydalandilar. Ushbu psixologik yondashuv an'anasi XX asr boshlarida **A. Marti** tomonidan taklif etilgan universal



grammatika nazariyasi uchun ham asos bo'ldi. **Marti** barcha insonlarning *psixofiziologik tuzilishi* o'xshashligidan kelib chiqib, tillar bir xil psixologik mazmuni ifodalashini va tilshunoslikning vazifasi ushbu universal psixik funksiyalarni tahlil qilishdan iborat ekanligini ta'kidladi.



**1.1-rasm. Buyuk rus olimi, psixolingvistika fanining asoschilaridan biri  
A.A. Potebnya**

Tilshunosligimizda shu paytgacha empirik asosda yig'ilgan, to'plangan til faktlarini yangi tahlil usullarini sharhlashga e'tibor berilmaydi. Psixolingvistika ana shu kamchiliklarni bartaraf qilishda yaqindan yordam beradi. Psixolingvistika idrokning **“reflektor” nazariyasiga** tayanib, nutqni idrok qilishni miyaga informatsiya “quyilishi”ning bir tomonlama jarayoni sifatida qaraydi. Biz, reflektor nazariyasiga muvofiq, nutq idrok qilinishini xuddi nutqni harakatga keltiruvchi motor zvenosining majburiy ishtirokida sodir bo'ladigan faol dinamik jarayon sifatida qarashni tavsiya etamiz.

Psixolingvistika nutq identifikatsiyasi (aynan o'xshatish, tenglashtirish) ni darajalangan tizim natijasi sifatida qaraydi. Bizning nuqtayi nazarimizda, nutqning



idroki va tushunulishi-darajalanishning natijasi emas, aksincha, vujudga kelgan darajalanish faol o‘xshatish mexanizmining harakati natijasidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Информационные вопросы семиотики, лингвистики и автоматического перевода. Выпуск 1-4. М.: 1971-74.
2. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 2008.
3. Азим Ҳожиев “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати” Тошкент “Ўзбекистон энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002.
4. Каримова В.М. Психология. Т. 2000
5. Кодухов Б.И. Общее языкознание. М., 1974.
6. Кодухов В.И. Введение в языкознание. М.: 1976.
7. Леонтьев А.А. Психоллингвистика. Л., 1967.